



XALQ DEPUTATLARI NISHON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr

VII-15-157-4-65-K/25

Nishon tumani

Nishon tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2025-yil 25-dekabrda O‘RQ-1105-sonli Qonuniga muvofiq, Xalq deputatlari Qashadaryo viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrda “Qashqadaryo viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-20-218-4-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 25-dekabrda 01/57-1-29242-sonli xatlarini inobatga olib, Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1.O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi) hamda Xalq deputatlari Qashadaryo viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrda “Qashqadaryo viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-20-218-4-0-K/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Mazkur Qonunga muvofiq, Nishon tuman mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari **110 343 655,0 ming so‘m** va xarajatlari esa **110 343 655,0 ming so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi inobatga olinsin.

3.Quyidagilar:

Nishon tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilovaga** muvofiq;

Tuman mahalliy budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilovaga** muvofiq;

2026-yil uchun tuman mahalliy budjetiga tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari **3-ilovaga** muvofiq;

Bunda, mazkur qaror qabul qilingandan so'ng bir kun muddatda tartibga soluvchi daromadlardan ajratmalarning normativlari bo'yicha tuman budjetlarining taqsimotini o'rnatilgan tartibda "Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimiga" Nishon tumani G'aznachilik xizmati bo'linmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo'yilsin.

tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek soliq bo'lmagan to'lovlar bo'yicha belgilanadigan normativlari **4-lovaga** muvofiq;

Tuman mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Tuman mahalliy budjeti shaxsiy g'azna hisobvarag'ida turgan budjet mablag'larining 2026-yilda yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori **867 786,0 ming so'm** etib, hamda 2026-yil uchun tuman budjeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori **6-ilovaga** muvofiq belgilansin.

5.Tuman mahalliy budjeti zahira jamg'armasi hajmi 2026-yil uchun **1499134,0 ming so'm** miqdorida belgilansin.

tuman mahalliy budjetining 2025-yil uchun zahira jamg'armalari tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish mablag'lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Bunda davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari joriy etilgan hududlarda tegishli tumanlar va shaharlar budjetlarining zahira jamg'armalari ushbu mexanizmlar joriy etilgan yildan oldingi yildagi hajmdan kam bo'lmagan miqdorda shakllantiriladi hamda qo'shimcha mablag'larni shakllantirish tegishli yuqori turuvchi budjetlarning zahira jamg'armalari mablag'larini kamaytirish hisobidan amalga oshirilganligi inobatga olinsin.

6.Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **7-ilovaga muvofiq;**

jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m² uchun

belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **8-ilovaga muvofiq**;

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlarning 1 m² uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsientlar **9-ilovaga muvofiq**;

2026-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari **10-ilovaga muvofiq**;

2026-yil uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha Soliq kodeksi bilan o'rnatiladigan soliq stavkasiga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsientlar miqdori **11-ilovaga muvofiq**;

jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i bo'yicha Soliq kodeksi bilan o'rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsientlar miqdori **12-ilovaga muvofiq**;

yuridik va jismoniy shaxslarning 2026-yil uchun belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslaridan foydalanlik uchun soliq stavkalariga nisbatan belgilangan oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori **13-ilovaga muvofiq** tasdiqlansin.

Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari mahalliy budjet prognozlarini inobatga olib, mazkur qarorning 7 va 8-ilovalariga asosan qo'llaniladigan koeffitsientlarga nisbatan tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, ko'cha kesimida 0,7 dan 3,0 miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega ekanligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7.Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari S.Xaqnazarov, tuman soliq inspeksiyasi (A.Ashurov) tuman hokimliklari bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralari ko'rsin.

8.Tuman hokimligi hamda barcha mas'ul tashkilotlar 2025-yil uchun ajratilayotgan budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq

tushumini ta'minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

9.Tuman soliq inspeksiyasi (A.Ashurov) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o'z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o'rnatish;

yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo'yicha doimiy tahlililar o'tkazgan holda, soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliq to'lovlari bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish;

aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

yer va mol-mulk solig'ining soliq bazasini oshirish, ya'ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

10.Majburiy ijro byurosi Nishon tuman bo'limi (U.Ziyodullayev), tuman soliq

inspeksiyasi (A.Ashurov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko'rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo'yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko'rish vazifasi yuklatilsin.

11.Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi (A.Rustamov) Bo'sh turgan ob'ektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi (S.Toshev) bilan birgalikda:

bo'sh turgan davlat mulki ob'ektlarini aniqlash bo'yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga ko'ra viloyatda mavjud bo'sh turgan davlat mulki ob'ektlari ro'yxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish bo'yicha tegishli takliflar tayyorlash vazifasi yuklatilsin.

12.Nishon tuman "Suv yetkazib berish xizmati" DM (Y.Xudoyberdiyev) va tuman soliq inspeksiyasi (A.Ashurov) tumandagi ma'sul tashkilotlar bilan birgalikda tumanda sug'orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo'yicha aniq hisob-

kitoblar yuritgan holda mazkur iste'mol hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to'liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to'liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan iste'mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo'yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazishga alohida e'tibor qaratilsin.

13. Tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i (Sh. Raxmanov), adliya bo'linmasi boshlig'i (M. Tangriyev) tumanda budjetda hisoblangan boj, jarima va yig'implarni o'z vaqtida to'liq mahalliy budjetga undirish choralarini ko'rib borsinlar.

14. Xalq deputatlari tuman Kengashi hamda tuman hokimligi hamda ma'sul tashkilotlar O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 27 va 28-moddalarida belgilangan budjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar to'liq va o'z vaqtida tushishi hamda budjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o'rnatilsin.

15. Tuman mahalliy budjetidan mablag' oluvchilar hamda hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag'larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari Nishon tumani Kengashga hisobot berib borsin.

Bunda, hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to'liq rejalashtirilishi va o'z vaqtida to'lanishi;

o'zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to'g'ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to'liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag'larning to'g'ri taqsimlanishi;

o'z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta'minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma'lumotlarni joylashtirib borilishini ta'minlasinlar.

16. Nishon tumani iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyati raisi (Y. Suvonov) tuman hokimligi bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to'liq

xatlovdan o'tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo'yicha shartnomalar tuzish choralarini ko'rsin hamda ushbu shartnomalar bo'yicha yig'implarni budjetga to'lanishi ustidan doimiy nazorat o'rnatilsin.

17.O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi Huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamentining Davlat moliyaviy nazorati Inspeksiyasi Nishon tuman bo'linmasi (X.Amirqulov) budjetdan ajratilgan mablag'larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalarida axborot berib borish vazifalari yuklatilsin.

18.Tuman hokimligi Axborot xizmati (O.Tojiyev), Davlat soliq inspeksiyasi

(A.Ashurov), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Astanaqulov) bilan birgalikda hokimlik muassisligidagi gazetalarda Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to'lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma'lumotlarni e'lon qilinishi hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

19.Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

20.Xalq deputatlari Nishon tumani Kegashining 2024-yil 27-dekabrdagi "Nishon tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida"gi VII-5-030-4-65-K/24-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

21.Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi S.Raxmonov hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari - tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i S.Xaqnazarov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



**TOG'AYEV
BOTIR
NORMAHMADOVICH**

Xalq deputatlari Nishon tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrda
VII-15-157-4-65-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Nishon tumanining 2026-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy
ko'rsatkichlari prognoz ko'rsatkichlari hamda 2027-2028-yilga mo'ljallari**

T/r	Ko'rsatkichlar	2026-yil uchun prognoz	Mo'ljal	
			2027-yil	2028-yil
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so'm	X	X	X
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'ati, foizda	X	X	X
3.	Iste'mol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	X	X	X
4.	Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati, foizda	106,9	107	107,1
5.	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, foizda	104,6	104,7	104,8
6.	Chakana tovar aylanmasining o'sish sur'ati, foizda	109	109,1	109,2

Xalq deputatlari Nishon tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-157-4-65-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**2026-yil uchun Nishon tuman mahalliy budjeti daromadlarining
prognoz ko'rsatkichlari**

T/R	Daromad turlari	Nishon t ming so
	JAMI	110 343
1.	Qo'shilgan qiymat solig'i	2 760 000
2.	Foyda solig'i	4 857 400
3.	Aylanmadan olinadigan soliq	4 888 000
4.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	5 555 000
5.	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan Aksiz solig'i jami	1 400 000
	<i>alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)</i>	0,
	<i>pivo</i>	0,
6.	<i>benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i</i>	600 000
7.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	33 082 000
8.	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	7 868 000
9.	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	15 765 000
10.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	18 240 000
11.	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	450 000
12.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	12 934 000
	shundan: Qishloq xo'jaligi korxonalarini bo'yicha suv solig'i	17 183 000
	Qishloq xo'jaligi korxonalarini suv solig'ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	-6 873 000
13.	Boshqa korxonalar	2 624 000
14.	Davlat boji	848 000
15.	Yig'imlar	300 000
16.	Jarimalar	640 000
17.	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	155 000

Xalq deputatlari Nishon tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrda
VII-15-157-4-65-K/25 -son qaroriga
3-ilova

**2026-yil uchun Nishon tuman budjetidan hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga
ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari**

№	Hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar nomi	ming so'mda Nishon tumani
Xarajatlar miqdori, Jami		110 343 655,0
1.	<i>Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga xarajatlar - jami</i>	39 566 994,0
	<i>shu jumladan:</i>	
1.1	<i>Maorif</i>	32 318 246,0
	<i>- maktabgacha ta'lim</i>	16 889 753,0
	<i>- umumiy ta'lim</i>	15 428 493,0
	<i>- kadrlar tayyorlash</i>	0,0
1.2	<i>Sog'liqni saqlash</i>	0,0
	<i>shundan: Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasiga transfertlar</i>	0,0
1.3	<i>Madaniyat</i>	3 918 473,0
1.4	<i>Sport</i>	3 193 690,0
1.5	<i>Fan</i>	0
1.6	<i>Chernobil falokatini bartaraf etishda qatnashganlarni ijtimoiy himoyalash</i>	0
1.7	<i>Davlat mukofotlarini to'lash bo'yicha xarajatlar</i>	0
1.8	<i>Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»</i>	0
1.9	<i>Toshkent metropolitenida aholiga cheklangan tariflarda xizmat ko'rsatish natijasida ko'riladigan zararni qoplash</i>	0
1.10	<i>Jamoat transportining brutto shartnomasi asosida ko'rsatiladigan xizmatlar uchun subsidiyalar</i>	0
1.11	<i>Fuqarolarga yetkazilgan zararni qoplash</i>	0
1.12	<i>Ijtimoiy ko'nikma markazlari (moddiy yordam mablag'i)</i>	136 585,0
2.	<i>Iqtisodiyotga xarajatlar</i>	27 285 136,0
	<i>shu jumladan:</i>	
2.1	<i>Obodonlashtirish</i>	21 880 825,0
2.2	<i>Ko'p kvartirali uylardagi lift uskunalari ta'mirlash va yangilash</i>	0
2.3	<i>Issiqlik ta'minot korxonalariga subsidiyalar</i>	0
2.4	<i>Suv xo'jaligi vazirligi tashkilotlari</i>	1 689 814,0
2.5	<i>O'rmon xo'jaligi tashkilotlari</i>	0
2.6	<i>Tabiatni saqlash xarajatlari</i>	0

2.7	<i>Chigirtka va qizil kapalakka qarshi profilaktika va kurashish xarajatlari</i>	0
2.8	<i>Shahar atrofi va viloyat ichidagi shaharlararo norentabel avtobus yo`nalishlaridan ko`riladigan zararlarni qoplash</i>	0
2.9	<i>Fermerlar buxgaltenriyasini saqlash xarajatlari</i>	1 304 608,0
2.10	<i>Pillachilik va qorako`lchilikni rivojlantirish qo`mitasining hududiy bo`limlarini saqlash xarajatlari</i>	0
2.11	<i>Veterinariya qo`mitasi (laboratoriya)</i>	579 948,0
2.12	<i>Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash</i>	0
2.13	<i>Avtobus yo`nalishlarini subsidiyalash</i>	0
2.14	<i>Qoraqalpog`iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jamg`armasi mablag`larini shakllantirish</i>	0
2.15	<i>"Mahalla budjeti" jamg`armasi mablag`lari</i>	1 829 941,0
3	<i>Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar</i>	0
3.1	<i>Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar (boshqa hukumat qarorlari asosida ajratilgan mablag`lar)</i>	0
3.2	<i>Maktabgacha ta`lim tashkilotlarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta`mirlash va jihozlash</i>	0
3.3	<i>Umumta`lim maktablarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta`mirlash va jihozlash</i>	0
3.4	<i>Sog`liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta`mirlash va jihozlash</i>	0
3.5	<i>Melioratsiya obyektlari</i>	0
1.9	<i>Toshkent metropolitenida aholiga cheklangan tariflarda xizmat ko`rsatish natijasida ko`riladigan zararni qlplash</i>	0
4.	<i>Davlat markaziy hokimiyat organlari</i>	25 420 096,0
5.	<i>Davlat boshqaruv organlarini saqlash</i>	0
6.	<i>Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarini saqlash</i>	0
7.	<i>Zahira jamg`armasi</i>	1 499 134,0
8.	<i>Fuqarolar tashabbusi jamg`armasi</i>	16 572 295,0
9.	<i>Boshqa xarajatlar</i>	0
	<i>shu jumladan:</i>	0
9.2	<i>Ichki va tashqi qarzga xizmat ko`rsatish xarajatlari</i>	0
9.3	<i>Qabullar uyi</i>	0
9.4	<i>Advokatlik xizmatlari xarajatlari</i>	0
9.5	<i>Uzoq muddatli budjet ssudasi</i>	0
9.6	<i>Mahalliy budjetdan moliyalashtiriladigan boshqa muassasalar va tadbirlar</i>	0

Xalq deputatlari Nishon tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrda
VII-15-157-4-65-K/25 -son qaroriga
4-ilova

2026-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar hamda soliq bo'lmagan to'lovlar bo'yicha belgilanadigan ajratma me'yorlari

foiz hisobida

T/r	Hududlar nomi	Qo'shilgan qiymat solig'i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan				Foyda solig'i				Alkohol mahsulotlari (pivodan tashqari)				Pivo				benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i			
		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Nishon tumani	0%	10%	100%	90%	0%	5%	100%	95%	100%	100%	0%	0%	0%	8%	100%	92%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	20%	100%	80%

foiz hisobida

T/r	Hududlar nomi	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i				Qurilish materiallari bo'yicha yer qat'idan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo'yicha dividendlar				Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yig'imlar	
		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga		Tuman (shahar)lar budgetiga		Viloyatning viloyat budgetiga		Tuman (shahar)lar budgetiga	Viloyatning viloyat budgetiga	Tuman (shahar)lar budgetiga	Viloyatning viloyat budgetiga	Tuman (shahar)lar budgetiga	Viloyatning viloyat budgetiga	Tuman (shahar)lar budgetiga	Viloyatning viloyat budgetiga				
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB												
1	Nishon tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%	100%	0%	10%	90%	10%	90%	10%	90%

Izoh: 1. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budgetlarga tushumlar (3510300) hamda yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag'lari (3510810) tuman (shahar)lar hamda viloyat budgeti o'rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

- Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha 3111600 daromad kodiga tushadigan mablag'lar to'liq tuman va shaharlar budgetlariga yo'naltiriladi;
- Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha 3141103 daromad kodiga tushgan mablag'larning (20 foizi) to'liq viloyat budgetiga yo'naltiriladi;
- Jarimalar (3430103), davlat boji (3422103) va yig'imlar (3422203) bo'yicha tushumlar to'liq tegishli tuman va shaharlar mahalliy budgetlariga yo'naltiriladi;
- Boshqa tushumlar alohida Hukumat qarorlari bilan belgilan me'yorlarga asosan taqsimlanadi.
- O'zbekiston Respublikasining 25.12.2025 yildagi "2026 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida"gi O'RQ-1105-sonli Qonunning 12-moddasi, 4-bandiga binoan viloyat budgetiga qoladigan qismi, qo'shilgan qiymat solig'i (20 foiz) va alkohol mahsulotlari aksiz solig'i (30 foiz)dan tushgan tushumlar 100 foiz miqdorida hisobga olingan.

Xalq deputatlari Nishon tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrda
VII-15-157-4-65-K/25 -son qaroriga
5-ilova

**2026-yil Nishon tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining
chegaraviy hajmi**

Ming soʻmda

Budjetlar nomi	Daromad	Xarajat
JAMI	110 343 655,0	110 343 655,0
Nishon tumani	110 343 655,0	110 343 655,0

Xalq deputatlari Nishon tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrda
VII-15-157-4-65-K/25 -son qaroriga
6-ilova

**2026-yilda Nishon tuman mahalliy budjetlarining shaxsiy g'azna
hisobvaraqlarida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam
miqdorlari**

ming so'mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	867786,0
	<i>Shundan</i>	
1	Nishon tumani	867786,0

Xalq deputatlari Nishon tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-157-4-65-K/25 -son qaroriga
7-ilova

**Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar
bo‘yicha mutlaq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan
kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar**

T/r	Hududlar nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)
1	“Obod” MFY	1,07	42 192 240
2	“Paxtaobod” MFY	1,07	42 192 240
3	“Do‘stlik” MFY	1,07	42 192 240
4	“Jalajin” MFY	1,07	42 192 240
5	“Ibn Sino” MFY	1,07	42 192 240
6	“Yuksalish” MFY	1,07	42 192 240
7	“Kimyogar” MFY	1,22	48 107 040
8	“Yangi Nurchi” MFY	1,22	48 107 040
9	“Baynalminal” MFY	1,22	48 107 040
10	“Nuriston” MFY	1,22	48 107 040
11	“Nurchi” MFY	1,22	48 107 040
12	“Paxtakor” MFY	1,22	48 107 040
13	“Chaman” MFY	1,07	42 192 240
14	“Balxiyak” MFY	1,07	42 192 240
15	“Navro‘z” MFY	1,07	42 192 240
16	“Nishon” MFY	1,07	42 192 240
17	“Paxtazor” MFY	1,07	42 192 240
18	“Orzu bustoni” MFY	1,07	42 192 240

19	“Umr bunyodkori” MFY	1,07	42 192 240
20	“Shirinobod” MFY	1,07	42 192 240
21	“Katta anxor” MFY	1,07	42 192 240
22	“Bo'ston” MFY	1,22	48 107 040
23	“Navbaxor” MFY	1,22	48 107 040
24	“A.Qodiriy” MFY	1,07	42 192 240
25	“Ko`ksoy” MFY	1,07	42 192 240
26	“Bog'ishamol” MFY	1,07	42 192 240
27	“Guliston” MFY	1,07	42 192 240
28	“Gulzor” MFY	1,07	42 192 240
29	“Oydin” MFY	1,07	42 192 240
30	“Oq oltin” MFY	1,07	42 192 240
31	“Samarqand” MFY	1,07	42 192 240
32	“Yoshlar Diyori” MFY	1,07	42 192 240
33	“Janub ma‘shali” MFY	1,07	42 192 240
34	“Qirqquloq” QFY	1,07	42 192 240
35	“Istiqbol” MFY	1,07	42 192 240
36	“Kaptarli” MFY	1,07	42 192 240
37	“Yangi obod” MFY	1,07	42 192 240

Izoh: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig'i stavkasini mahalla fuqarolar yig'inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko'paytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Nishon tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-157-4-65-K/25 -son qaroriga
8-ilova

Jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Shaharlar va tumanlar nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2026-yil uchun (so'm)
1	"Obod" MFY	1,1	360,79
2	"Paxtaobod" MFY	1,1	360,79
3	"Do'stlik" MFY	1,1	360,79
4	"Jalajin" MFY	1,1	360,79
5	"Ibn Sino" MFY	1,1	360,79
6	"Yuksalish" MFY	1,1	360,79
7	"Kimyogar" MFY	1,23	403,43
8	"Yangi Nurchi" MFY	1,20	393,59
9	"Baynalminal" MFY	1,23	403,43
10	"Nuriston" MFY	1,23	403,43
11	"Nurchi" MFY	1,23	403,43
12	"Paxtakor" MFY	1,23	403,43
13	"Chaman" MFY	1,1	360,79
14	"Balxiyak" MFY	1,1	360,79
15	"Navro'z" MFY	1,1	360,79
16	"Nishon" MFY	1,1	360,79
17	"Paxtazor" MFY	1,1	360,79

18	“Orzu bo`stoni” MFY	1,1	360,79
19	“Umr bunyodkori” MFY	1,1	360,79
20	“Shirinobod” MFY	1,1	360,79
21	“Katta anxor” MFY	1,1	360,79
22	“Bo'ston” MFY	1,23	403,43
23	“Navbaxor” MFY	1,23	403,43
24	“A.Qodiriy” MFY	1,1	360,79
25	“Ko`ksoy” MFY	1,1	360,79
26	“Bog'ishamol” MFY	1,1	360,79
27	“Guliston” MFY	1,01	331,27
28	“Gulzor” MFY	1,1	360,79
29	“Oydin” MFY	1,1	360,79
30	“Oq oltin” MFY	1,1	360,79
31	“Samarqand” MFY	1,1	360,79
32	“Yoshlar Diyori” MFY	1,1	360,79
33	“Janub ma`shali” MFY	1,1	360,79
34	“Qirqquloq” QFY	1,1	360,79
35	“Istiqbol” MFY	1,1	360,79
36	“Kaptarli” MFY	1,1	360,79
37	“Yangi obod” MFY	1,1	360,79

Izoh: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig'i stavkasini mahalla fuqarolar yig'inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko'paytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Nishon tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-157-4-65-K/25 -son qaroriga
9-ilova

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlarning 1 kv.m. uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsientlar

T/r	Shaharlar va tumanlar nomi	Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlarning 2026-yilda 1 kv.metr uchun belgilangan eng kam qiymatga nisbatan qo'llaniladigan <i>(Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasiga tegishli sub'ektlardan tashqari)</i>	
		Koeffitsent miqdori	Eng kam qiymat (1 kv.m uchun, so'mda)
1.	Nishon tumani	0,75	1 042 500

Xalq deputatlari Nishon tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-157-4-65-K/25 -son qaroriga
10-ilova

**2026-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun
belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari**

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Bir oylik ijara to'lovi stavkalarining eng kam miqdorlari, so'mda			
		Binolar:			
		Turar joy		Noturar joy	
		Koeffitsent miqdori	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun (so'mda)	Koeffitsent miqdori	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun (so'mda)
1.	Nishon tumani	1,30	7 670	1,30	15 340

Xalq deputatlari Nishon tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-157-4-65-K/25 -son qaroriga
11-ilova

2026-yil uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha Soliq kodeksi bilan o'rnatiladigan soliq stavkasiga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsientlar miqdori

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Soliq kodeksi bo'yicha 2026-yil uchun belgilangan stavka	Koeffitsient miqdori	Koeffitsient qo'llanilganidan keyingi soliq stavkasi %
1	Nishon tumani	0,95	1,00	0,95

Xalq deputatlari Nishon tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrda
VII-15-157-4-65-K/25 -son qaroriga
12-ilova

12-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i bo'yicha Soliq kodeksi bilan o'rnatiladigan soliq stavkalariga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsientlar miqdori

T/r	Tuman va shaharlar nomi	2026 yil koeffitsient miqdori				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo'lganlarini qo'shib hisoblaganda), ko'p kvartirali uylarga uzviy bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.mdan ortiq va 500 kv.m gacha bo'lgan	500 kv.m dan ortiq bo'lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish ob'ektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk ob'ektlari
1.	Nishon tumani	1,15	1,15	1,15	1,15	1

Xalq deputatlari Nishon tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrda
VII-15-157-4-65-K/25 -son qaroriga
13-ilova

Nishon tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning 2026-yil uchun belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga nisbatan belgilangan oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori

№	Belgilangan soliq stavkasi		Soliq to'lovchilar va soliq solish obyektlari		
			Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan elektr stansiyalari va kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan yer usti hamda osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq qo'llaniladigan koeffitsiyent miqdori	Avtotransport vositalarini yuvish uchun yer usti hamda osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qo'llaniladigan koeffitsiyent miqdori	Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun yer usti va osti suv resurslari manbalaridan foydalanilgan suv hajmi uchun soliq stavkasiga qo'llaniladigan koeffitsiyent miqdori
1.	O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 445-moddasiga muvofiq belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari bir kub metr uchun mutlaq o'lchamdagi miqdori	yer usti suv resurslari manbalari	700	15 000	38 000
		yer osti suv resurslari manbalari	850	15 000	38 000
2.	Belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalarini oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori		1.2	1.4	1.2

3.	Belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari oshiruvchi koeffitsiyentlarda bir kub metr uchun belgilangan miqdori	yer usti suv resurslari manbalari	840	21 000	45 600
		yer osti suv resurslari manbalari	1 020	21 000	45 600